



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



## LANGUAGE IS THE SACRED MIRROR OF THE NATION'S SPIRITUALITY

Qurbanova Maftuna Jonzoq qizi<sup>1</sup>

*Jizzakh Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

### KEYWORDS

Uzbek language, national pride, independence, spirituality, thinking, Latin language, Uzbek alphabet

### ABSTRACT

This article analyzes the role and importance of the Uzbek language in the spirituality of the nation, increasing its level in international rankings, and the work being done in this regard.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7229669

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Teacher of native language and literature, Jizzakh Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Uzbekistan

## TIL - MILLAT MA'NAVIYATINING MUQADDAS KO'ZGUSI

### KALIT SO'ZLAR:

o'zbek tili, milliy iftixor, mustaqillik, ma'naviyat, tafakkur, lotin tili, o'zbek alifbosi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbek tilining millat ma'naviyatidagi o'rni va ahamiyati, uning xalqaro reytinglardagi darajasini oshirish va bu borada qilinayotgan ishlar tahlil qilingan.

Til – davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma'naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. 1989-yilning 21-oktyabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga - Davlat tili maqomi berildi.

"O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida" 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'RQ-615-son) 1-moddasi bilan 21-oktyabr sanasi O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 31 yil to'lishi va mazkur sana joriy yilda ilk marta "O'zbek tili bayrami" sifatida nishonlanishi munosabati bilan butun respublika miqyosida qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Davra suhbatida o'zbek tilining huquqiy maqomini belgilashda yengib o'tilgan qiyinchiliklardan tortib hozirgi kunda tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun yaratilgan shart – sharoitlar hamda davlat tilini yangi pog'onaga olib chiqish borasida qilinayotgan sa'y-harakatlar alohida e'tirof etildi. Tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagи mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qolishiga e'tibor qaratildi.

O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish uchun uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga kiritishda o'z hissamizni qo'shishimiz zarurligi hamda har birimizdan tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etishi ta'kidlandi.

Bugun dunyoda 7 mingga yaqin til mavjud. Ammo hammasi ham yetarlicha himoyalangan emas. Ma'lumotlarga qaraganda, ularning 43 foizi yo'qolib ketish arafasida. Har ikki haftada bitta til muomaladan chiqayotganiga ishonmasangiz ham kerak...

Bor-yo'g'i yuzga yaqin til ta'lim tizimida, davlatlar o'rtasidagi aloqalarda qo'llaniladi. O'nga yaqini dunyoda rasmiy maqomga ega, xolos. BMT ham dunyo aholisining katta qismi so'zlashadigan 6 tilda – ingliz, arab, rus, fransuz, xitoy hamda ispan tilida faoliyat olib boradi. Ko'plab xalqlar ona tiliga hurmat sifatida har yili alohida bir kunni bayram qilib keladi. Keling, bunday sanalar qachon va qanday nishonlanishi bilan tanishamiz.

1952-yil 21-fevralda Bangladesh poytaxti Dakka shahrida yuzlab fuqarolar bengal tiliga rasman davlat tili maqomi berilishini talab qilib, namoyishga chiqdi. Keskin tus olgan hodisa chog'ida bir necha nafar qurban berilgan.

1999-yili UNESCO Bosh konferensiyasida o'sha mudhish namoyishda o'z ona tili uchun kurashib, jon bergan yoshlari xotirasiga 21-fevral Xalqaro ona tili kuni deb e'lon qilindi va mazkur sana ko'plab davlatlarda keng nishonlana boshlandi.

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning o'zbek tilida chop etilishi yo'lga qo'yildi. 1993-yil 2-sentyabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish to'g'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rinnegallashiga yo'l ochdi. Shu o'rinda statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanina "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" deb bejiz ta'kidlamagan edi.

Huquqiy tahlillar natijasida o'zbek tilini rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

1. Ayni o'zbek tili sohasi mutaxassislaridan O'zbek tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat olish tartibini ishlab chiqish; (Xuddi CEFR, IELTS yoki boshqa chet tili sertifikatlari shu til mutaxassislaridan so'ralgani kabi);

2. MJtKning 42-moddasiga: "Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdar shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" degan o'zgartirish kiritish;

3. OAVda davlat tilining jozibadorligi xususidagi turli xil teledasturlar, davra suhbatlari, reklamalar, animatsion roliklar namoyish qilish; (faqatgina 21-oktyabr sanasida emas, doimiy ravishda olib borilishini ta'minlash joiz);

4. Chet el fuqarolari ishtirokida o'zbek tilini madh etadigan xalqaro insho, tezis, maqola, ocherklar tanlovlарини tashkil qilish va ularni rag'batlantirish (bu taklif ham faqatgina 21-oktyabr Til bayrami kuni uchun emas, doimiy ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq).

Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur».

Ona tili mavqeining yanada mustahkamlanib, rivojlanishi uchun qator Qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi.

Bundan ko'zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash, o'zbek

tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevralda "Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori tasdiqlandi.

Qaror bilan 2021-yil 1-apreldan boshlab o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tizimi joriy etildi. Bu test tizimi davlat tilida ish yuritish sohasining yuksak rivojiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Bugun chet tillarini chuqurroq o'rganishimizni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Xorijiy davlatlardan mamlakatimizga ko'plab investor va tadbirkorlar kelishmoqda, ular bilan turli sohalar bo'yicha hamkorliklar o'rnatilmoqda. Turizmni rivojlantiriyapmiz, ko'plab yoshlar chet el universitetlarida o'qishga katta qiziqish bildirishmoqda. Mamlakatimizda chet tillarini o'qitish bo'yicha keng ko'lamlar amalga oshirilmoqda. Chet tillarisiz katta muvaffaqiyatlarga erishish mushkul. Biroq, chet tillarini o'rganish ona tilimizga e'tiborsizlik hisobiga bo'lmasligi kerak. Zero, XX asr boshida olti tilli - o'zbek, arab, fors, hind, turk, va rus tillarida lug'at tuzgan Isoqhon Ibrat aytganlaridek, "Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir". Biror xorijiy tilni kamsitmasdan, til o'rganishni qadrlagan va qo'llab-quvvatlagan holda o'z ona tilimiz sofligini saqlashimiz va dunyoda muhim til sifatida rivojlanishi uchun astoydil harakat qilmog'imiz kerak. O'zbek tilini yanada rivojlantirish, uni dunyoga tanitish nafaqat tilshunos olim, shoir, yozuvchi, san'atkor-u suxandonlarning vazifasi, balki har bir millat vakilining ham burchi bo'lmog'i lozim. Ona tilimiz faqat so'zlashuv tili bo'lib qolmasdan, mamlakatimizda rasmiy ish yuritish tili, ilm-fan tili bo'lishi kerak.

Til millatning bebafo, ulkan boyligi hisoblanadi. U har bir insonning madaniyatini ko'rsatuvchi oyna. Millatning o'zligi uning tilida namoyon bo'ladi. Tildagi har bir so'z inson tafakkurining mahsuli. Shunday ekan, millatning ruhi hisoblangan tilimizni avaylab-asraylik. Nutqimizga turli keraksiz ajnabiyoq qo'zlarni qo'shib, tilimizning sofligiga putur etkazmaylik. Tilimizdagi bebafo xazinalarini qunt bilan o'rganib, uning qadriga yetaylik.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o'zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida" 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. Hamroyeva O. Ona tili. Ma'ruzalar to'plami. Akademnashr. 2019

3. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/111>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/baxtiyor-mengliyev-til-millat-timsoli-xalq-g-ururi>
5. <https://www.archive.uz/post/til-millat-manaviyatining-muqaddas-kozgusidir>
6. <https://iiv.uz/news/ozligimiz-timsoli---ona-tilim-insholar-tanloviga-tariximsan-taqdirimsan-on-a-tilim>